



VOYAGA YETMAGANLARNING VIKTIMLIGI: BULLING MUAMMOSI VA UNING OLDINI OLISH YO'LLARI

Muallif: IIV zaxirasidagi mayor

Abdijalilova Madina G'ofur qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar o'rtasida bulling muammosi, uning psixologik, ijtimoiy va kriminologik jihatlari hamda bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qilingan. Voyaga yetmaganlar viktimligini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, ilmiy tadqiqotlar va amalga oshirilayotgan amaliy ishlar yoritilgan. Maktablarda bulling holatlarini barvaqt aniqlash, profilaktika qilish va voyaga yetmaganlarning psixologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Voyaga yetmaganlar viktimologiyasi, bulling fenomeni, viktimologik profilaktika, viktimlik turlari, maktab zo'ravonligi, kibervitkimlik, viktimlik xususiyatlari, bullingning kriminogen jihatlari.

Kirish

Zamonaviy jamiyatda voyaga yetmaganlar o'rtasida bulling global miqyosda keng tarqalgan ijtimoiy-psixologik muammo hisoblanadi. UNICEFning ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab 13–15 yoshdagi o'quvchilarning taxminan 50 foizi maktabda va uning atrofida tengdoshlarining zo'ravonligiga duchor bo'lishadi.¹ O'zbekistonda ham bu muammo dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, ta'lim muassasalarida bulling ko'rinishidagi zo'ravonlik holatlari, ularning sabablari va oqibatlarini chuqur o'rganish, viktimlikning oldini olish choralari va mexanizmlarini ishlab chiqish talab etilmoqda.

Bulling – bu bir yoki bir necha o'quvchilarning boshqa o'quvchiga nisbatan tizimli ravishda sodir etiladigan jismoniy yoki psixologik zo'ravonlik harakatlaridir. Bu hodisa o'z ichiga haqorat, masxara qilish, kamsitish, qo'rqitish, ijtimoiy izolyatsiya,

¹UNICEF. <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/about-bullying-with-kids>



jismoniy tajovuz va kiberzo'ravonlik kabi harakatlarni qamrab oladi. Bulling ta'sir etuvchi tomon uchun ham, qurbon uchun ham salbiy oqibatlarga olib keladi va ijtimoiy muhitni buzadi. Sababi bullying provakativ xususiyatga ega ijtimoiy va huquqiy hodisadir. Bullingning boshlanishi va davom etishi jarayoniga nisbatan, uning oqibati har doim og'ir bo'ladi. Huquqiy tomonlama qaralsa, bullying jinoyatni keltirib chiqarish sharoitini yuzaga keltiradi.

Norvegiyalik psixolog Dan Olweusning ta'rifiga ko'ra, bullying — bu boshqa odamni doimiy ravishda haqorat qilish, qo'rqitish yoki izolyatsiya qilish orqali unga ataylab zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlar majmuasidir.²

Bulling fenomenining ijtimoiy-psixologik mohiyati

Ijtimoiy nuqtayi nazardan, bullying jamiyatdagi kuch va ierarxiyaga asoslangan munosabatlarning maktab yoki o'smirlar muhitiga ko'chgan shaklidir. Koloradolik konfliktolog Barbara Coloroso bullyingni nafaqat zo'ravon va jabrlanuvchi o'rtasidagi muammo, balki **kuzatuvchilar** ham muhim rol o'ynaydigan **ijtimoiy zanjirli jarayon** sifatida tushuntiradi. U bullyingni "kuch va nazorat uchun kurash" deb ta'riflab, uni jamiyatdagi kuch muvozanatining buzilishi sifatida ko'radi.³

Psixologik nuqtayi nazardan, bullying odatda tajovuzkor shaxsning o'zini ijtimoiy ustun qo'yishga intilishi, namoyishkorona e'tibor va kuchga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan bog'liq. Zo'ravonlikni sodir etayotgan shaxs ko'pincha o'zini nazoratsiz his qiladi. Bullingdagi latentlik esa, bu kabi holatlarni sistematik o'sishiga imkon beradi.

Bullingning asosiy xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

1. **Tizimlilik va davomiylik** - bullying bir martalik hodisa emas, balki tizimli ravishda davom etuvchi harakatlar jarayonidir.
2. **Kuch nisbatlarining noteng taqsimlanishi** - bullying jarayonida doimo "kuchli" tomon (bullying qiluvchi) va "zaif" tomon (qurbon) mavjud bo'ladi.
3. **Qasddan zarar yetkazish niyati** - bullying qiluvchi shaxs o'z harakatlari bilan qurbonga psixologik yoki jismoniy zarar yetkazishni maqsad qiladi.

² Olweus, D. (1993). *Bullying at School: What We Know and What We Can Do*. Oxford: Blackwell Publishing.

³ Coloroso, B. (2004). *The Bully, the Bullied, and the Bystander: From Preschool to High School—How Parents and Teachers Can Help Break the Cycle of Violence*. New York: HarperCollins.



4. **Guruh dinamikasi** - bulling ko'pincha kuzatuvchilar guruhi ishtirokida yuz berib, ular passiv yoki faol ravishda bulling qiluvchi tomonni qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

Voyaga yetmaganlar viktimligining o'ziga xos xususiyatlari

Viktimologiyada bulling qurboni bo'lish xavfi yuqori bo'lgan shaxslarning aksariyati voyaga yetmaganlar hisoblanadi. Bejizga, *"maktab viktimizatsiyasi"* yoki *"tengdoshlar viktimizatsiyasi"* kabi tushunchalar paydo bo'lmagan. Bulling qurboni bo'lgan voyaga yetmaganlarni quyidagi viktimlik *xususiyatlari* orqali guruhlariga bo'lishimiz mumkin:

Situativ viktimlik - shaxsning muayyan vaziyat, sharoit yoki holat tufayli viktimizatsiyaga uchrash ehtimoli yuqori bo'lgan viktimlikdir. Bu turdagi viktimlik ko'pincha vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib, vaziyat o'zgarishi bilan yo'qolishi mumkin. Situativ viktimlik shaxsning doimiy psixologik xususiyatlari emas, balki u tushib qolgan vaziyat bilan bog'liq.

Situativ viktimlikka quyidagi misollarni keltirish mumkin:

- **Moslashuv (adaptatsiya) davri** - yangi maktab yoki sinfga kelgan o'quvchining adaptatsiya davrida ijtimoiy himoyaning vaqtinchalik yo'qligi, yangi ijtimoiy muhitning qoidalarini bilmasligi tufayli viktimlikka uchrashi.
- **Vaqtinchalik zaiflik holati** - jismoniy kasallik, shikastlanish, ruhiy holatning yomonlashuvi (masalan, yaqin insonning vafoti tufayli) davrida shaxsning himoya mexanizmlari zaiflashishi.
- **O'tish davrlari** - yoshga bog'liq krizislar (masalan, o'smirlilik davridagi o'zgarishlar) tufayli shaxsning zaiflik holati.
- **Yangi ijtimoiy rolga o'tish** - masalan, oddiy o'quvchidan sinf sardorligiga o'tish vaqtida boshqa o'quvchilar tomonidan sinash, bosim o'tkazish.
- **Muvaffaqiyatsizliklar davri** - o'qishda muvaffaqiyatsizliklari davrida o'quvchining o'ziga ishonchi pasayishi.
- **Oilaviy vaziyatning o'zgarishi** - ota-onaning ajralishi, yangi oila a'zosining paydo bo'lishi, ko'chib o'tish kabi vaziyatlar davrida bolaning vaqtincha emotsional zaiflik holati.



- **Ijtimoiy izolyatsiya davri** - kasal bo'lib qolish, uzoq vaqt maktabga bormaslik.

Maktab muhitida situativ viktimlik ko'pincha o'quvchi yangi jamoaga tushib qolganda, sinf yoki maktabni almashtirganida, yashash joyini o'zgartirganda yoki oilaviy vaziyat (masalan, ota-ona ajralishuvi) tufayli emotsional holatning vaqtinchalik beqarorlashuvi paytida kuzatiladi. Bu holatlarda bola o'zining odatiy adaptatsion mexanizmlari va himoya strategiyalarini to'liq ishga solishga ulgurmagan bo'ladi..

Rollik viktimlik — bu shaxsning ijtimoiy roli, maqomi yoki unga nisbatan jamiyatda shakllangan stereotiplar asosida qurbonlik holatiga tushishi holatidir.

Maktab muhitida rollik viktimlikka quyidagi misollarni keltirish mumkin:

- **"A'lochi" roli** - qolganlarga nisbatan yaxshi o'qiydigan o'quvchilar. Ba'zi sinflarda "aqli", "botanik" deb ataladigan o'quvchilar, bu rolni salbiy idrok etiladigan muhitda bulling qurboniga aylanishi mumkin.

- **"Chetlatilgan" roli** - sinf jamoasida chetlashtirilgan, boshqalar bilan kam muloqot qiladigan o'quvchilar.

- **"Moliyaviy jihatdan zaif" roli** - kam ta'minlangan oiladan bo'lgan o'quvchilar ayrim muhitlarda kamsitilishi mumkin.

- **"Oila a'zolarining ijtimoiy xususiyatlari sababli kamsitilgan bola" roli** - *"Alkashning bolasi"* sifatida tanilgan bola sinfdoshlarining kamsitishi va ajratishiga uchrashi yoki nogironligi bor ota-onaning farzandi *"bechora"* deb qaralib, doimiy rahm-shafqat ostida ijtimoiy ajratishga uchrashi mumkin.

Rollik viktimlikda asosiy omil — **ijtimoiy stigma** (tamg'alash) hisoblanadi. Bu holat ijtimoiy adolatsizlikning ko'rinishi bo'lib, ijtimoiy tizimdagi befarqlik yoki noto'g'ri qarashlar bilan mustahkamlanadi.

Shaxsiy-psixologik viktimlik - bolaning psixologik xususiyatlari, temperamenti, xarakteri va shaxs tipologiyasi bilan bog'liq bo'lib, bu xususiyatlar uning viktimizatsiyaga moyilligini oshiradi.

Shaxsiy-psixologik viktimlikka quyidagi misollarni keltirish mumkin:

- **O'zini past baholash va o'ziga ishonchsizlik** - viktimologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zini qadrlash darajasi past bo'lgan shaxslar o'z huquqlari va



manfaatlarini himoya qilishga qodir emasliklarini his qilishadi, bu esa ularni bulling qiluvchilar uchun "qulay nishon"ga aylantiradi.

- **Submissivlik** - boshqalarga bo'ysunishga moyillik, "yo'q" deyish qobiliyatining sustligi, qarama-qarshilikdan qo'rqish va guruhdagi boshqalar bilan kelishmovchiliklardan qochish istagi.

- **Emotsional sezgirlikning yuqori darajasi** - tashqi ta'sirlarga va salbiy munosabatga ortiqcha reaksiya, bulling qiluvchilar odatda qurbonlarning kuchli emotsional reaksiyasidan qoniqish olishadi.

- **Ijtimoiy ko'nikmalarning yetishmasligi** - tengdoshlar bilan munosabat o'rnatish va saqlab qolish, guruh dinamikasini tushunish va ijtimoiy signallarni to'g'ri talqin qilishdagi qiyinchiliklar.

Shaxsiy-psixologik viktimlikning eng asosiy omili shaxsning ijtimoiy adaptatsiyasi va o'z-o'zini himoya qilish qobiliyatining sustligi hisoblanadi.

Shuningdek, oxirgi yillarda kiberviktimlik guruhi ham tobora kengayib bormoqda.

Kiberviktimlik - zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan bog'liq holda, voyaga yetmaganlar endi nafaqat real hayotda, balki virtual makonda ham bulling qurboniga aylanmoqda.

Misol uchun, 9-sinf o'quvchisi Kamola, ijtimoiy tarmoqda o'zining shaxsiy rasmlari va videolarini joylaydi. Sinfdoshi Olim uning profiliga kirib, Kamolaning ba'zi rasmlari va videolarini olib guruhlarga tarqatadi va ustidan kulib, tahqirlovchi memlar tayyorlaydi. Kamola bunga javoban maktabga bormay qo'yadi, ruhiy tushkunlikka tushadi, hatto o'z joniga qasd qilish haqida o'ylay boshlaydi. Bu holatda u **kiberviktima** — ya'ni kiberbulling qurboni hisoblanadi. Bu yerda tahdid, kamsitish, izzat-nafsni yerga urish onlayn maydonda sodir bo'lmoqda, bu esa uni klassik viktimizatsiyadan farqlaydi.

Kiberviktimlikning muhim omillari:

1. **Raqamli savodxonlikning pastligi.** Voyaga yetmaganlar o'zining shaxsiy ma'lumotlarini kim bilan baham ko'rayotganini tushunmasligi, xavfsizlik



sozlamalarini bilmasligi hamda yoshga doir noyetukligi sababli osongina o'ljaga aylanadilar.

2. **Shaxsiy axborotni haddan tashqari oshkor qilish.** Voyaga yetmaganlar o'z suratlari, joylashuvi, kontaktlari yoki hissiy holatlari bilan bog'liq postlarni erkin tarqatadilar, bu esa potentsial tajovuzkorlar uchun "nishon"ni aniqlashtiradi.

3. **Kiberbullingga nisbatan huquqiy yoki ijtimoiy befarqlik.** Aksariyat hollarda voyaga yetmaganlar yordam so'rashdan uyalanadilar yoki qo'rqadilar. Bu holat kiberbullingni davom etishiga yo'l ochadi.

4. **Ota-onaning befarqligi.** Virtual olamda voyaga yetmaganlar kattalarning nazoratisiz qolishlari mumkin. Bunda kattalarning internet savodxonligi va madaniyati sustligi, voyaga yetmaganning gadjetlarini doimiy nazorat qilmasligi, farzandiga nisbatan giperishonchi (farzandi internetni yetarlicha tushunmasligi, ortiqcha harakat qilmasligi, kiberhujumga uchramasligiga ishonch ko'rinishida) va boshqa omillar sabab bo'ladi.

Huquqshunos olimlar M.Rustambayev va S.Niyozovalar, voyaga yetmaganning irodaviy doirasida uning uyatchanlik hissi hamda tajovuzchidan qo'rqqanligi kriminogen vaziyatni saqlanib qolishida salmoqli o'rinni egallaydi, bu esa keyinchalik ham unga nisbatan bu turdagi tajovuzlarning bir necha bor takrorlanishiga imkon yaratib berishi mumkin deyishgan. ⁴

Bullingning voyaga yetmaganlarga psixologik-ijtimoiy ta'siri

Bullingning viktimlarga ta'siri uzoq muddatli va jiddiy bo'lishi mumkin:

1. **Psixologik oqibatlar** - depressiya, xavotir, o'z-o'ziga ishonchning pasayishi, o'z joniga qasd qilish fikrlarining paydo bo'lishi.
2. **Ta'limdagi qiyinchiliklar** - o'qishga qiziqishning yo'qolishi, maktabga borishdan qo'rqish, shaxsiy ko'rsatkichlarning pasayishi.
3. **Ijtimoiy izolyatsiya** - do'stlar bilan munosabatlarning yomonlashuvi, yangi aloqalar o'rnatishdan qo'rqish.

Shu bilan birga, bulling qiluvchilar (buller) ham salbiy oqibatlarga duch keladi:

⁴ Viktimologiya. Maxsus qism. Rustambayev M.X., Niyozova S.S. 2021.



1. **Deviant xulq-atvorning rivojlanishi** - bulling qiluvchilar keyinchalik jinoyatchilik olamiga qadam bosish ehtimoli yuqori hisoblanadi. Ularda zo'rvonlik oddiy hayot tarziga aylanishi mumkin. Ayniqsa bu harakatiga nisbatan javobgarlikning yo'qligi, ularda sababsiz o'ziga ishonchni orttiradi.

2. **Ijtimoiy ko'nikmalarning og'ishi** - muammolarni zo'rvonlik orqali hal qilish odati. Har qanday ijtimoiy munosabatlarda adolat yoki to'g'rilik prinsipiga ko'ra emas, balki, o'zining xohishini birinchi o'ringa qo'yishga odatlanishi mumkin. Murosaga kelish kabi muhim ijtimoiy hislatlar rivojlanmaydi.

3. **Psixologik muammolar** - o'z harakatlaridan afsuslanish, ichki ziddiyatlar.

Voyaga yetmaganlarning bulling munosabatlari har ikki tomon, bulling ostidagi viktin va bulling sodir etuvchi (bulla) uchun ham havfli ijtimoiy hodisa. Maktab- ijtimoiy hudud, u yerda voyaga yetmaganlar ijtimoiy munosabatga kirish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bulling esa maktabda voyaga yetmaganlarning ijtimoiylashuviga jiddiy putur yetkazadi. Bulling sodir etgan voyaga yetmaganlarda kelajakda g'ayriijtimoiy xulq-atvor shakllanadi. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunida, g'ayriijtimoiy xulq-atvor - shaxsning jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini buzuvchi turmush tarzi, harakati yoki harakatsizligi deb ta'rif berilgan.⁵

Bulling fenomenining kriminogen tahlili

Bulling qiluvchilarning deviant xulq-atvorini yuzaga keltiruvchi kriminogen omillarni kompleks tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Quyida bulling qiluvchilarni (bulla) bu harakatlarni sodir etishga undaydigan ijtimoiy-psixologik omillar, ularning kriminogen xususiyatlari to'liqroq ochib berilgan:

1. Oilaviy-tarbiyaviy omillar:

Bulling qiluvchilarning oilalarida ko'pincha quyidagi kriminogen omillar kuzatiladi:

- **Zo'rvon tarbiya modeli:** Malamutskiyning tadqiqotlariga ko'ra, bulling qiluvchilarning 60% dan ortig'i oilada jismoniy jazo ko'rgan yoki oila a'zolari orasida

⁵ O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni, 3 - modda



zo'ravonlik guvohiga aylangan bolalar hisoblanadi. Bu holatda zo'ravonlik xulq-atvori ularga "normal" yechim sifatida o'zlashtiriladi.⁶

- **Tarbiyada nazoratning yo'qligi:** Ota-onalar tomonidan nazoratning sustligi yoki umuman yo'qligi, bolaning xatti-harakatlariga nisbatan befarqlik, farzandga yetarli e'tibor bermaslik.

- **Haddan ziyod qattiq tarbiya:** Ota-onalarning haddan ziyod qattiqo'l tarbiya uslubi, bola shaxsini mensimaslik, hamda shaxsiy chegaralarni buzish bola shaxsiyatining noto'g'ri shakllanishiga sabab bo'ladi.

2. Ijtimoiy-muhit omillari:

- **Tengdoshlar guruhi ta'siri:** Bulling ko'pincha guruh normasi sifatida qabul qilingan muhitda rivojlanadi. Maktab sinflari va tengdoshlar guruhlarida aggressiv xulq-atvorni maqbul deb hisoblovchi muhit bulling qiluvchilarni rag'batlantiradi. Bulling qiluvchilar guruh dominantligi uchun kurashda o'z statuslarini oshirishga harakat qilishadi.

- **Maktab muhiti:** Maktab ma'muriyati va o'qituvchilarning bullingga nisbatan tolerant munosabati, hodisalarga to'g'ri va tezkor munosabat bildirilmasligi bulling qiluvchilarning jazosiz qolishiga olib keladi. Bu esa "jazosizlik sindromini" yuzaga keltirib, keyinchalik bullarning deviatsiyasi chuqurlashishiga zamin yaratadi.

- **Ijtimoiy tengsizlik:** Jamiyatdagi moddiy tabaqalanish, tengsizlik va ijtimoiy adolatsizlik bolalarda aggressiyani kuchaytiradi. Ijtimoiy muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari cheklangan o'smirlar o'z statuslarini zo'ravonlik orqali ko'tarisha harakat qilishadi.

- **Ommaviy axborot vositalari va ommaviy madaniyat ta'siri:** Zo'ravonlik elementlarini tarannum etuvchi media mahsulotlari, o'yinlar va filmlar yoshlar uchun xulq-atvor modeli bo'lib xizmat qiladi. V.V. Kolesov va boshqa olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, ommaviy madaniyatda zo'ravonlik tarannumining oshishi bolalardagi bulling holatlarining ko'payishiga to'g'ri proporsional.⁷

⁶ Malamutskiy (Маламутский) И.В. (2018). "Семейные факторы формирования буллинга у подростков: психолого-криминологический анализ". *Вестник криминологических исследований*, 8(2), 68-79.

⁷ Kolesov, V.V. (2019). "Влияние массовой культуры на формирование агрессивного поведения подростков" [Ommaviy madaniyatning o'smirlar aggressiv xulq-atvorini shakllantirishdagi ta'siri]. *Вопросы психологии и педагогики*, 6(3), 42-56.



3. Individual-psixologik omillar:

- **Empatiyang yetishmasligi:** Bulling qiluvchilar ko'pincha empatiya (boshqa insonning his-tuyg'ularini anglash va tushunish) qobiliyati past bo'lgan shaxslar hisoblanadi. Bu ularga o'z harakatlarining qurbon uchun salbiy oqibatlarini to'liq anglamaslikka imkon beradi.
- **Impulsivlik va o'zini nazorat qilish qobiliyatining sustligi:** Bulling qiluvchilar ko'pincha impulsiv harakatlarni qilishga moyil bo'lib, o'z emotsiyalarini boshqara olmaslik holati kuzatiladi.
- **Muvaffaqiyatsizlikka tolerantlikning pastligi:** Maktabda yoki boshqa faoliyatda muvaffaqiyatsizlikka uchragan bolalar o'z statuslarini ko'tarish uchun aggressiv xulq-atvorga murojaat qilishlari mumkin.

Bulling va jinoyatchilik o'rtasidagi bog'liqlik:

Zamonaviy kriminologik tadqiqotlar ko'rsatadiki, bulling qiluvchilarning keyinchalik jinoyatchilikka moyilligi ancha yuqori hisoblanadi. Quyidagi ma'lumotlarga e'tiborimizni qaratsak:

- Bulling qiluvchilarning 60% foizi 24 yoshga qadar kamida bir marta jinoiy javobgarlikka tortilgan.⁸
- Bulling qiluvchilarning 35-40% foizi voyaga yetganlik davrida ham aggressiv xulq-atvorni namoyon etishni davom ettirgan.⁹
- Muntazam bulling qiluvchilarning retsidiv jinoyatchilikning sub'ekti bo'lish ehtimoli odatiy aholiga nisbatan 4-6 barobar yuqori.¹⁰

Voyaga yetmaganlar o'rtasida bullingning oldini olish bo'yicha jahon tajribalari

Bullingning ijtimoiy ahamiyati, zo'ravonlikning boshlang'ich nuqtasi, kriminologik xususiyati va kelajakdagi ta'sirini anglagan holda, bu borada ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirib joriy etish muhim ahamiyatga ega.

⁸ Olson, C.K., & Andrew, M.S. (2018). "Longitudinal analysis of bullying behavior and subsequent criminal activity". *Journal of Criminology and Public Policy*, 17(3), 535-559.

⁹ Ttofi, M.M., Farrington, D.P., Lösel, F., & Loeber, R. (2011). The predictive efficiency of school bullying versus later offending: A systematic/meta-analytic review of longitudinal studies. *Criminal Behaviour and Mental Health*, 21(2), 80-89.

¹⁰ Farrington, D.P., & Ttofi, M.M. (2011). Bullying as a predictor of offending, violence and later life outcomes. *Criminal Behaviour and Mental Health*, 21(2), 90-98.



Olweus Bullying Prevention Program (OBPP) - Norvegiya tajribasi

Olweus Bullying Prevention Program (OBPP) - dunyoda bullingni oldini olish dasturlari orasida eng ko'p o'rganilgan va samaradorligi isbotlangan dastur hisoblanadi. Bu dastur 1970-yillarda Norvegiyalik olim Dan Olweus tomonidan ishlab chiqilgan. Dasturning yaratilishiga 1982 yilda Norvegiyada uchta o'smir o'z joniga qasd qilishi, sababi esa maktabdagi tengdoshlari tomonidan zo'ravonlikka uchrashi bo'lgani turtki bo'lgan. Shu voqeadan so'ng Norvegiya hukumati maktablarda bullinga qarshi milliy kampaniya boshlab, Dan Olweus boshchiligidagi guruhga maxsus dastur ishlab chiqishni topshirgan.

OBPP dasturini amalga oshirish jarayoni 18-24 oy davom etadi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. **Tayyorgarlik bosqichi:** maktab rahbariyati va xodimlarini tayyorlash, Bullying Prevention Coordinating Committee (BPCC) tuzish.
2. **Dasturni joriy etish bosqichi:** xodimlarni o'qitish, dasturni sinflarda joriy etish.
3. **Davomiylik va baholash bosqichi:** dasturni muntazam ravishda baholash va takomillashtirish.

OBPP dasturining samaradorligi ko'plab ilmiy tadqiqotlar orqali tasdiqlangan. Norvegiyada o'tkazilgan dastlabki tadqiqotda 42 ta maktabdagi 2,500 o'quvchida bullining 50% gacha kamayishi kuzatilgan. Keyinchalik AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlarda o'tkazilgan tadqiqotlar ham ushbu dasturning samaradorligini ko'rsatgan. Olweus va boshqalar (2019) tomonidan o'tkazilgan 3 yillik tadqiqot natijalariga ko'ra, OBPP dasturi Pennsilvaniyadagi 95 ta maktabdagi 30,000 o'quvchi orasida barcha turdagi bulling hodisalarini (og'zaki, jismoniy, munosabat va kiberbuling) sezilarli darajada kamaytirishga erishgan.¹¹

KiVa - Finlyandiya tajribasi

KiVa (Kiusaamista Vastaan - "Bullingga qarshi") - Finlyandiyada ishlab chiqilgan bullinga qarshi kurashish dasturi bo'lib, 2006 yilda Turku universiteti

¹¹ Olweus, D., & Limber, S. P. (2010). Bullying in school: Evaluation and dissemination of the **Olweus Bullying Prevention Program**. American Journal of Orthopsychiatry



olimlari tomonidan Finlyandiya Ta'lim vazirligi buyurtmasi asosida yaratilgan. Dastur 2008-2009 o'quv yilida mamlakatda sinovdan o'tkazilib, 2009 yildan boshlab keng miqyosda joriy etilgan. KiVa dasturi uchta turli yosh guruhlariga mo'ljallangan dasturlarni o'z ichiga oladi: 1-3 sinflar, 4-6 sinflar va 7-9 sinflar uchun. Har bir dasturda yosh xususiyatlariga muvofiq materiallar taqdim etiladi.

Dasturni joriy etish bosqichlari:

1. **Tayyorgarlik bosqichi:** maktab o'qituvchilari va ma'muriyatini o'qitish, KiVa jamoasini tuzish.
2. **Amalga oshirish bosqichi:** sinf soatlari davomida darslarni o'tkazish, virtual o'yinni joriy etish.
3. **Monitoring bosqichi:** yillik so'rovnomalar orqali natijalarni kuzatib borish.

KiVa dasturi samaradorligi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda tasdiqlangan. Finlyandiyada o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, dastur qurbon va bullerlar sonini 4-6% ga kamaytirishga erishgan. Dastur nafaqat bevosita bullingni kamaytirish, balki o'quvchilarning maktabga muhabbatini oshirish, o'qish motivatsiyasini ko'tarish va umumiy muhitni yaxshilash kabi ijobiy natijalarga ham olib kelgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, KiVa dasturi nafaqat an'anaviy bullingni, balki kiberbullingni ham kamaytirish samaradorligiga ega. Bundan tashqari, dastur qurbonlarni himoya qilish va qo'llab-quvvatlashni rag'batlantirishga yordam beradi.¹²

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar o'rtasida bullingga qarshi kurashish uchun tizimli va kompleks yondashuv talab etiladi. Norvegiyada ishlab chiqilgan Olweus Bullying Prevention Program (OBPP) va Finlyandiyada yaratilgan KiVa dasturi kabi xalqaro tajribalar bullinga qarshi kurashishning samarali usullarini namoyish etadi.

Ushbu dasturlarning muhim jihatlari quyidagilardir:

¹² Salmivalli, C., Kärnä, A., & Poskiparta, E. (2011). Counteracting bullying in Finland: The KiVa program and its effects on different forms of being bullied. *International Journal of Behavioural Development*.



1. Butun maktab jamoasini qamrab olish (o'quvchilar, o'qituvchilar, ma'muriyat, ota-onalar)
2. Uzluksiz va uzoq muddatli jarayon
3. Muntazam monitoring va baholash
4. Kuzatuvchilar (guvohlar) rolini o'zgartirish
5. Ijobiy maktab muhitini yaratish

O'zbekistonda bullinga qarshi kurashish tizimini yaratishda bu tajribalarni hisobga olish va mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada davlat organlari, ta'lim muassasalari, oila, mahalla va jamoat tashkilotlarining hamkorligi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xulosa

Voyaga yetmaganlar o'rtasida bulling muammosi murakkab va ko'p qirrali masala bo'lib, uni hal qilish uchun kompleks yondashuv zarur. O'zbekiston Respublikasida bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan inspektor-psixologlar lavozimini joriy etilishi, "Xavfsiz maktab" konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish va voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bullingning oldini olish va unga qarshi kurashish uchun ta'lim muassasalari, oilalar, davlat organlari va jamiyatning barcha a'zolari birgalikda harakat qilishi zarur. Voyaga yetmaganlarning psixologik xavfsizligini ta'minlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish – nafaqat qonun hujjatlarida belgilangan majburiyat, balki har bir inson uchun ma'naviy burch hamdir.

Bulling muammosini hal qilishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, xalqaro tajribani o'rganish va uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, preventiv dasturlarni ishlab chiqish va joriy etish – kelajak avlodning sog'lom, ruhiy jihatdan barqaror va ijtimoiy faol shaxslar bo'lib voyaga yetishlarining muhim shartlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.



2. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni.
4. M.Rustambayev, S.Niyozova. Viktimologiya. Umumiy qism.
5. M.Rustambayev, S.Niyozova. Viktimologiya. Maxsus qism.
6. UNICEF. Bola bilan bullying haqida qanday gaplashish kerak.
<https://www.unicef.org/uzbekistan/en/about-bullying-with-kids>
7. Bullying at school: What we know and what we can do. Blackwell Publishing.
8. Olweus, D., & Limber, S. P. (2010). Bullying in school: Evaluation and dissemination of the Olweus Bullying Prevention Program. American Journal of Orthopsychiatry.
9. Salmivalli, C., Kärnä, A., & Poskiparta, E. (2011). Counteracting bullying in Finland: The KiVa program and its effects on different forms of being bullied. International Journal of Behavioural Development.
10. Xalq ta'limi vazirligi va YuNESKO tashkiloti hamkorligida "O'zbekiston maktablarida bullyingni oldini olish" qo'shma loyihasi haqida ma'lumot (2019).
11. Coloroso, B. (2004). The Bully, the Bullied, and the Bystander: From Preschool to High School—How Parents and Teachers Can Help Break the Cycle of Violence. New York: HarperCollins.
12. Olson, C.K., & Andrew, M.S. (2018). "Longitudinal analysis of bullying behavior and subsequent criminal activity". Journal of Criminology and Public Policy, 17(3), 535-559.
13. Ttofi, M.M., Farrington, D.P., Lösel, F., & Loeber, R. (2011). The predictive efficiency of school bullying versus later offending: A systematic/meta-analytic review of longitudinal studies. Criminal Behaviour and Mental Health, 21(2), 80-89.
14. Farrington, D.P., & Ttofi, M.M. (2011). Bullying as a predictor of offending, violence and later life outcomes. Criminal Behaviour and Mental Health, 21(2), 90-98.